

O'QITUVCHI NUTQI RIVOJLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Hakimov Begmatjon Samijon o'g'li,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ta'lif jarayoni samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining nutqi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Chunki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot ta'lif sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqola o'qituvchining pedagogik nutqini rivojlanirishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish, amaliy tajribalarni o'rganish hamda samarali usullarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: nutq, o'qituvchi, kommunikatsiya, pedagogika, tafakkur, samaradorlik, nutqiy madaniyat, kompetensiya, kommunikativ malaka.

Zamonaviy ta'lif jarayonida o'qituvchining sinfxonadagi nutqi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining nutqiy mahorati o'quvchilarning bilim olish darajasiga, ularning darsdagi faolligiga va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ta'sir qiladi. O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi kuchli bo'lsa, u dars jarayonida o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatada oladi va o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Pedagogik kommunikatsiya, notiqlik san'ati, psixolingvistika va innovatsion texnologiyalar kabi turli yondashuvlar o'qituvchining sinfxonadagi nutqini rivojlanirishga yordam beradi. Ushbu bobda o'qituvchining nutqiy rivojlanishiga oid asosiy ilmiy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Pedagogik kommunikatsiya – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali ta'limiylar muloqot jarayoni bo'lib, ta'lif sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Lev Vygotsky o'zining "Fikrlash va nutq" asarida nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergen va pedagogik kommunikatsiyaning o'quvchilar rivojlanishiga ta'sirini tadqiq qilgan. Unga ko'ra, tafakkur nutq orqali shakllanadi va rivojlanadi. Vygotsky pedagogik kommunikatsiyaning o'quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirini chuqur o'rgangan. U o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni rivojlanishning muhim omili sifatida ko'rsatib, o'qituvchining yo'naltiruvchi roli orqali o'quvchining yaqin taraqqiyot zonasini doirasida yangi bilim va ko'nikmalarini egallashini ta'kidlagan.

1. Nutq – tafakkurning asosiy vositasi: Vygotsky nutqning nafaqat muloqot, balki tafakkur jarayonlarini rivojlanirishda ham markaziy rol o'ynashini ta'kidlaydi. Nutq orqali odamlar o'z fikrlarini ifodalab, dunyoqarashlarini shakllantiradi va murakkab kognitiv faoliyatlarni amalga oshiradilar. Nutq,

birinchi navbatda, ijtimoiy muhitda boshqalar bilan aloqada bo‘lish orqali shakllanadi va shu jarayonda tafakkur ham rivojlanadi.

2. Ya’ni, nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik: Vygotsky nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar uchun nutqning rivojlanishi tafakkur jarayonlarining asosiy omilidir. Masalan, bolaning nutqi kattalar bilan muloqotda shakllanishi bilan birga, u o‘zining ichki fikrlash jarayonlarini ham rivojlantiradi. Bu jarayonlar orqali bolalar dunyo haqidagi bilimlarini kengaytiradi va yangi ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

3. Pedagogik kommunikatsiyaning ahamiyati: Vygotsky pedagogik jarayonlarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotning rivojlanishga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan. O‘qituvchi o‘z o‘quvchisiga o‘rgatish jarayonida nafaqat bilimlarni, balki tafakkurni ham rivojlantiradi. O‘qituvchining yordamida o‘quvchi o‘zining yaqin taraqqiyot zonasini (ZPD) engib o‘tib, mustaqil ravishda yanada murakkab faoliyatlarni amalga oshirishga tayyor bo‘ladi.

4. Yaqin taraqqiyot zonasining roli: Vygotskyning ZPD konsepsiysi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun o‘qituvchi va tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishini muhim deb hisoblaydi. Bu faza o‘quvchining mustaqil ravishda yecha olmaydigan, lekin yordam bilan hal qilinishi mumkin bo‘lgan vazifalarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, pedagogik yordam o‘quvchining kognitiv rivojlanishiga ko‘mak beradi va uning tafakkurini rivojlantiradi. Natijada, Vygotskyning nazariyasiga ko‘ra, nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqliknangi anglash, o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun muhimdir. Nutq orqali bolalar fikrlashni o‘rganadilar, o‘zlarining fikrlarini aniqlashtiradilar va murakkab fikrlar bilan ishslashga qodir bo‘ladilar.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining nutqiy madaniyatiga bog‘liq. O‘qituvchining nutqi nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning fikrlash faoliyatini faollashtirish va ijodiy izlanishlarini rag‘batlantirish quroli hamdir [5].

Interfaol ta’lim metodlari bugungi kunda pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, bunday metodlarning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining nutqiy kompetensiyasiga bog‘liq. Interfaollik bu – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama faol muloqot bo‘lib, bunda fikr almashish, o‘zaro savol-javoblar, bahs-munozaralar asosida bilim olish jarayoni amalga oshiriladi [8]. O‘qituvchining ravon, mantiqiy va emotsiyal nutqi o‘quvchilarni faol ishtiroy etishga undaydi. Ta’lim jarayonida interfaollikni ta’minlash uchun o‘qituvchi nutqida quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi [1]:

1. Savol-javob texnikasidan samarali foydalanish;
2. Munozara va bahslarga o‘quvchilarni jalb etish;
3. O‘quvchilarning fikrini tinglash va baholash madaniyati.

Nutqi boy va ta’sirchan pedagog o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga undaydi, bu esa ta’lim jarayonini faollashtiradi va ijodiy muhit yaratadi¹⁶. O‘quvchilarning savollariga batafsil va mantiqiy javob berish orqali

ham o‘qituvchi o‘zining kommunikativ mahoratini namoyon etadi va ularning fikrlash jarayoniga ta’sir qiladi. Ayni paytda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish o‘qituvchi nutqining imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Masalan, multimedya prezентatsiyalari, video darslar yoki onlayn platformalardagi jonli muloqotlar interfaollik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi nafaqat so‘zlash, balki vizual va audiovizual vositalardan foydalangan holda o‘quvchilar bilan o‘zaro ta’sirni kuchaytiradi. O‘qituvchining nutqi faqat bilim berish vositasi emas, balki ta’lim jarayonining interfaolligini ta’minlovchi kuchli pedagogik vositadir. Nutqi rivojlangan, muloqot madaniyati yuqori bo‘lgan o‘qituvchi ta’lim jarayonini faollashtiribgina qolmay, o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantirish va ularni mustaqil izlanishga rag‘batlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [2].

O‘zbek olimlari Xasanboeva U. va Yo‘ldoshev M. “Pedagogik kommunikatsiya asoslari” asarida o‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish yo‘llarini tadqiq etgan. Psixolingvistika til va nutq jarayonlarini psixologik jihatdan o‘rganadi va o‘qituvchining nutqiy faoliyati qanday shakllanishini tushuntiradi. Jean Piaget “The Language and Thought of the Child” asarida o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi bilan nutqiy qobiliyatlarini o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan va o‘qituvchining nutqiy strategiyalari bilim olish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Noam Chomsky “Aspects of the Theory of Syntax” asarida grammatika nazariyasini ilgari surgan va o‘qituvchilarning nutqiy kompetensiyasi til bilish qobiliyatining asosi ekanligini ko‘rsatgan.

O‘zbek olimi G. Nazarova “Pedagogik psixologiya va kommunikatsiya” asarida psixolingvistika va pedagogik kommunikatsiya bo‘yicha tadqiqot olib brogan [4]. O‘qituvchining sinfxonadagi nutqiy faoliyatini rivojlantirishda notiqlik san’ati va ritorika muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, Suxomlinskiy o‘qituvchining nutq madaniyati nafaqat pedagogik jarayonni samarali tashkil qilish, balki o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin va aniq ifodalashga undashda, shuningdek, ularning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda asosiy vosita ekanligini ta’kidlaydi.

Pedagogik madaniyat – bu o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, o‘z faoliyatini pedagogik mezonlarga mos olib borish mahorati, o‘quvchilar bilan munosabatlар madaniyati va pedagogik etikaga amal qilish qobiliyatidir. O‘qituvchi o‘z kasbiga nisbatan chuqur mas’uliyat his etishi, bilimini doimiy ravishda boyitib borishi pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu atama ilk bor A.V. Mudrik, V.A. Slastyonin, M.N. Skatkin kabi rus pedagoglari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Pedagogik madaniyat tarkibida nutq madaniyati alohida o‘rin tutadi. Bu atama tilshunoslikda adabiy til me’yorlariga rioya qilishni anglatsa, pedagogikada bu tushuncha yanada keng ma’noni o‘z ichiga oladi – ya’ni pedagogik vaziyatga mos, ta’sirchan va estetik jihatdan mukammal nutq.

Nutq madaniyati – bu so‘zlashuv va yozish jarayonida adabiy til me’yorlariga rioya qilish, fikrni ravon va ta’sirchan ifodalash mahoratidir. O‘qituvchi nutqi faqat bilim berish vositasi emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. O‘qituvchining nutqi uning shaxsiy madaniyati, bilim darajasi va estetik didining aksidir.

O‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biri – bu uning axloqiy qarashlaridir. Pedagog shaxs sifatida jamiyat oldida mas’ul bo‘lib, uning kasbiy axloqi o‘quvchilar bilan ishslashda asosiy tayanch sanaladi. O‘qituvchining axloqiy qarashlari uning kasbiy pozitsiyasi, tarbiya jarayoniga yondashuvi va shaxsiy namunasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu qarashlar pedagogik etika tamoyillariga tayanib, o‘quvchilar shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish,adolat va tenglik kabi qadriyatlarni o‘zida aks ettirishi kerak.

Pedagogning kommunikativ malakasi esa uning o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Sifatli muloqot pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. V.A. Slastyonin ta’kidlashicha, kommunikativ malaka – bu pedagogning o‘z fikrini tushunarli, lo‘nda va mantiqiy ifodalash qobiliyati bilan birga, suhbatdoshini diqqat bilan tinglash va fikr almashish madaniyatidir.

Kommunikativ malaka faqat tilni bilish emas, balki nutq madaniyati, emotsiyonal ta’sir o‘tkaza olish va turli yosh toifalariga mos tilni tanlay bilish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Xususan, pedagogik muloqot jarayonida noverbal vositalardan — imo-ishoralar, yuz ifodalari, tana tili va ovoz tembridan foydalanish ham juda muhimdir.

Bundan tashqari, zamонавиј педагогнинг психолоѓик таъйоргарлиги ham katta ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘zining emotsiyonal holatini boshqara olish, stressga chidamli bo‘lish, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini his qila olish va pedagogik muammolarni psixologik yondashuvlar asosida hal eta bilishi zarur. Pedagogik jarayonda har bir o‘quvchining individualligini inobatga olish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini anglab yetish va bu asosda shaxsiy yondashuvni qo‘llay olish psixologik таъйоргарликнинг асоси ко‘rsatkichlaridir.

Axloqiy qarashlar, kommunikativ malaka va psixologik таъйоргарликнинг o‘zaro bog‘liqligi. Bu uch jihat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Axloqiy qarashlari mustahkam pedagog o‘z muloqotida hurmat va samimiyatni saqlaydi, psixologik таъйоргарлиги yuqori bo‘lsa, qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa oladi. Kommunikativ malakasi rivojlangan o‘qituvchi esa har bir o‘quvchiga yaqin bo‘la oladi va ta’lim jarayonini samimiy, ishonchli muloqot asosida olib boradi. O‘qituvchining axloqiy qarashlari, kommunikativ malakasi va psixologik таъйоргарлиги uning kasbiy salohiyati va shaxsiy madaniyatini shakllantiruvchi асоси таъanchlar hisoblanadi. Bu omillar pedagog faoliyatining sifati va samaradorligini belgilaydi hamda o‘quvchilar tomonidan unga bo‘lgan hurmat va ishonchni mustahkamlaydi [6].

Pedagogik madaniyat va nutq madaniyati o‘zaro uzviy bog‘liq. Nutqi rivojlangan pedagog o‘z fikrini o‘quvchiga ravon yetkazadi, ta’sirchan nutqi orqali o‘quvchilarda motivatsiya uyg‘otadi va ularni o‘ziga jalb eta oladi. Pedagogik madaniyat va nutq madaniyati zamonaviy o‘qituvchining muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri bo‘lib, bu jarayon doimiy takomillashtirishni talab etadi. O‘qituvchi nutqi nafaqat bilim berish vositasi, balki tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning ham eng ta’sirchan quroli hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mudrik A.V. Sotsializatsiya. – Moskva: Vlados, 1997. – B.304.
2. Nazarova G. Pedagogik psixologiya va kommunikatsiya. – Toshkent, 2019.
3. Piaget J. (1959). The Language and Thought of the Child. New York: Routledge.
4. Shomurodov H. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2021. – B.256.
5. Slastyonin V.A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2002. – B. 512.
6. Xasanboyeva U., Yo‘ldoshev M. Pedagogik kommunikatsiya asoslari. – Toshkent: TDPU, 2018. – B.169.